



ALISHER NAVOI TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

Tashkent June 10, 2022

Proceedings of the international scientific online conference on

# INTERCULTURAL COMMUNICATION AND TOURISM



**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL EDUCATION OF THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
ALISHER NAVO'I TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND  
LITERATURE  
DEPARTMENT OF INTERCULTURAL COMMUNICATION AND TOURISM  
NIZHNY NOVGOROD LINGUISTIC UNIVERSITY NAMED AFTER N.A.  
DOBROLYUBOV**

Proceedings of the international scientific online conference on  
**“INTERCULTURAL COMMUNICATION AND TOURISM”**

---

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН  
ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И  
ЛИТЕРАТУРЫ ИМЕНИ АЛИШЕРА НАВОИ  
КАФЕДРА МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ И ТУРИЗМА  
НИЖЕГОРОДСКИЙ ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ  
Н.А.ДОБРОЛЮБОВА**

Материалы международной научной онлайн-конференции  
**«МЕЖКУЛЬТУРНЫЙ КОММУНИКАЦИИ И ТУРИЗМ»**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI  
UNIVERSITETI  
MADANIYATLARARO MULOQOT VA TURIZM KAFEDRASI  
N.A. DOBROLYUBOV NOMIDAGI NIJNIY NOVGOROD LINGVISTIKA  
UNIVERSITETI**

**“MADANIYATLARARO MULOQOT VA TURIZM”**  
mavzusida xalqaro ilmiy onlayn anjuman materiallari

**Tashkent June 10, 2022**

**“BOOKMANY PRINT”  
TOSHKENT – 2022**

**UO‘K: 378:338.48**

**KBK: 74.58**

**M 14**

**ISBN 978-9943-8396-8-7**

Madaniyatlararo muloqot va turizm [Matn] : xalqaro ilmiy onlayn anjuman materiallari. – Toshkent: Bookmany print, 2022. - 248 b.

Anjuman O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-martdagi 101-f-sonli farmoyishi bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida 2022-yilda xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik anjumanlar rejasi” hamda “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlariga muvofiq tashkil etilmoqda.

**Anjuman maqsadi:** mamlakatimizda turizm, ta’lim va filologik sahalarida olib borilayotgan imliy tadqiqot ishlarining samarasini ochib berish, professor o‘qituvchilar, doktrant va mustaqil izlanuvchilar hamda talaba yoshlar orasida turizm sohasida tilning muhim juhatlarini targ‘ib etish, til ta’limida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o‘zbek va xorijiy tillarni qiyosiy o‘rganish masalalarini ta’limning yetakchi mutaxassislar bilan tajriba almashish hamda ushbu sohadagi so‘nggi tadqiqot usullarini ommalashtirishdan ibora.

#### **DASTURIY QO‘MITA**

**Sirojiddinov Sh.S.** – ToshDO‘TAU rektori, f.f.d., professor, rais;

**Normurodova N.Z.** – ToshDO‘TAU xalqaro aloqalar bo‘yicha prorektori, f.f.d, dotsent, rais o‘rinbosari;

**Normamatov S.E.** – ToshDO‘TAU o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori, a‘zo;

**Jo‘raqo‘ziyev N.I.** – ToshDO‘TAU Ilmiy tadqiqotlar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, f.f.f.d., dotsent, a‘zo;

**Xoliqov B.A.** – ToshDO‘TAU yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, f.f.f.d., dotsent, a‘zo;

#### **TASHKILY QO‘MITA**

**Abdullayeva Ch.A.** – ToshDO‘TAU madaniyatlararo muloqot va turizm kafedrasini mudiri, katta o‘qituvchi;

**Xo‘djaqulova N.X.** – ToshDO‘TAU madaniyatlararo muloqot va turizm kafedrasini katta o‘qituvchisi, a‘zo;

**Kertayeva Z.S.** – ToshDO‘TAU madaniyatlararo muloqot va turizm kafedrasini katta o‘qituvchisi, a‘zo;

**Xursanov N.I.** – ToshDO‘TAU madaniyatlararo muloqot va turizm kafedrasini o‘qituvchisi, a‘zo;

**Kolobova S.A.** – Nijniy Novgorod davlat tilshunoslik universiteti professori, a‘zo.

#### **Mas‘ul muharrir:**

**Sirojiddinov Sh.S.** – ToshDO‘TAU rektori, f.f.d., professor

#### **Taqrizchilar:**

**Normurodova N.Z.** – ToshDO‘TAU xalqaro aloqalar bo‘yicha prorektori, f.f.d, dotsent;

**Xoliqov B.A.** – ToshDO‘TAU yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, f.f.f.d., dotsent.

© Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

© “Bookmany print” nashriyoti, 2022.

## WELCOMING SPEECH

**Sh.S. Sirojiddinov**

Doctor of Philological Science, prof.,  
Rector of TSUULL

Alaykum Dear guests and attendees of today's international scientific conference!

We are glad to greet you on behalf of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature. Our university is one of the youngest, but at the same time one of the most promising higher educational institutions in Uzbekistan, successfully carrying out researches and educational activities in the fields of Philology and Language Teaching Methodology, Language and Literature (Uzbek, English, German, French, Persian, Arabian, Turkish, Russian) Theory and Practice of Translation, Computer Linguistics, Turkology and Intercultural Communication since 2016, basing on the best world and national practices. We are currently ranked sixth in the national university rankings and 1001+ in THE International Rankings.

As part of the strategic program to increase the role and image of the Uzbek language at the international arena and the development of international cooperation in this direction, Uzbek language courses have been created at the university. To date, the number of graduates of our courses has reached 1300 international students who have gained - A1, A2, B1, B2, C1 levels of Uzbek language proficiency. Upon the successful completion of the course, each student receives an appropriate state certificate, valid throughout the Republic of Uzbekistan.

As we all are well aware, in today`s hectic world of globalization, the integration of nations and peoples is reaching a new, higher level than ever before. Proximity between countries and peoples, good neighborly relations, the travel of citizens on different purposes, the study of new languages and cultures can serve as a basis for a new social – humanitarian research field “Intercultural communication and tourism”.

The theme of today's scientific conference "Intercultural communication and tourism" was chosen taking into account such extralinguistic factors. There is extensive amount of work done by our university in this area. In particular, the joint program of participation in international projects ERASMUS + was an important step for the Uzbek language to gain a foothold in the world. The fact that program content includes translation of Navoi's works into English and their promotion abroad proves the extent of work done in the field of translation.

In addition, our university has signed memoranda of cooperation with leading universities around the world, on the basis of which 205 foreign students study at the university in areas of interest, develop strategic plans for QS rankings and organize meetings with successful university representatives. This can serve as the bright evidence of the university's growing international standing.

Also, the fact that the university is preparing a master's degree program as part of a joint program on "Guide and translation activities" shows relevance and topicality of today's conference.

The various topics of language and culture that are going to be widely discussed at today's conference, we hope, raise people's awareness about the importance of culture to reach successful communication and the role of tourism. The essentiality of today's conference is its seven sections that involves from language and to culture, and wide branches of tourism. I strongly believe that this scientific conference, which is held in harmony with language, culture and tourism, will contribute to the development of these areas in our country to a new stage.

## INTERPRETATION OF SPEECH ETIQUETTE IN EDUCATIONAL DISCOURSE

**Shaxnoza Bobojonova Yo‘ldosh qizi**

Toshkent tibbiyot akademiyasi

O‘zbek va xorijiy tillar kafedrası

E-mail: [shakhnoza.bobojonova@gmail.com](mailto:shakhnoza.bobojonova@gmail.com)

**Abstract:** This article analyzes the pragmalinguistic aspects of discourse and the strategies of speech etiquette with the help of situational examples of speech etiquette and various tools that ensure its emergence, as well as the emergence of universal principles of speech etiquette units.

**Key words:** speech etiquette, positive etiquette, communication method, communication units, social knowledge/understanding, situation.

### **Ta’limiy diskursda nutkiy etiketning talqini**

#### **Annotatsiya**

Ushbu maqola nutqiy etiket va uning yuzaga chiqishini ta’minlovchi turli vositalar xamda nutqiy etiket birliklarining universal tamoyillari yuzaga kelishi bilan bog‘liq diskursning pragmalingvistik aspektlarini va nutqiy etiket strategiyalarini situasional misollar yordamida taxlilga olingan.

**Kalit so‘zlar:** nutkiy etiket, pozitiv etiket, muloqot usuli, muloqot birliklar, ijtimoiy bilish/tushunish, nutqiy vaziyat.

Jahon tilshunosligida bugungi kunda tilni antroposentrik yondashuv asosida tadqiq etish barqarorlashib, lisoniy birliklarni “til va uning egasi” munosabatdorligida tadqiq etish, til egasiga xos bo‘lgan milliy-madaniy, ijtimoiy, ruhiy va kognitiv belgilarni e’tiborga oluvchi lisoniy yo‘nalishlarning rivojlanishi natijasida tilning jamiyat bilan aloqadorlikda o‘rganuvchi sosiolingvistika tarmog‘i ham istiqbolli yo‘nalishga aylandi. Bunda tilni o‘z sohibi, uning milliy mentaliteti, jamiyatda tutgan o‘rni, yoshi va jinsi bilan birga tadqiq etishga e’tibor qaratildi. Ayniqsa, nutqiy etiket va uning yuzaga chiqishini ta’minlovchi turli vositalar tilshunoslikning asosiy o‘rganish ob’yektlaridan biriga aylandi. Til va uning hosilasi bo‘lgan nutq kishilik

jamiyatining muhim aloqa vositalaridan biri hisoblanadi.

**Nutqiy etiket** individual madaniyat, qadriyatlarga ko'ra anglashiluvchi tushunchadir. Insonda nutqiy etiket atrof muhit, oila va jamiyatdagi vaziyat hamda boshqa omillar ta'sirida bolalikdan shakllana boradi. Turli millatlarda nutqiy etiket shu millatning o'ziga xosliklaridan kelib chiqqan holda turlicha bo'lishi tabiiy. Nutqiy etiketning turli qirralari nafaqat tilshunoslar, balki sosiologlar va madaniyatshunoslar tomonidan o'rganilgan, rang-barang konsepsiyalar ilgari surilgan. Ayniqsa, so'nggi yillarda bu masalaga qiziqish tobora ortib bormoqda. Chunki nutq etiketi davlatlar, xalqlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan omillardan biriga aylanmoqda.

Nutqda insonning madaniyati, odobi, bilimi, xulq-atvori aks etadi. Bu in'ikos tilshunoslikda "Nutqiy etiket" ("Politeness") tushunchasi orqali ifodalanadi. Ingliz tilida "Politeness" termini o'rta asr lotin tilidagi "silliqlashtirmoq, sayqal bermoq" (to smooth, to polish) ma'nosini anglatuvchi "politus" so'zidan olingan bo'lib, XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida Angliya ilmiy doirasida keng tarqaldi [1]. Nutqiy etiket masalasi rossiyalik olimlar tomonidan o'tgan asrning 80- yillaridan o'rganila boshlandi. T. V. Larina[2], I. A. Romanova[3], Ye.A. Rudneva[4], R.Ratmayr [5]., N.Formanovskaya[6]. Ye.Malyuga[7]. kabilar o'z ishlarini bevosita nutqiy etiket masalasiga bag'ishladi. I. A. Romanova va T.V.Larinalarning ishlari nisbatan mukammalligi bilan e'tiborimizni tortadi. I.A.Romanova "Slovar. Kultura rechevogo obshyeniya: etika, pragmatika, psixologiya" (Nutqiy muloqot madaniyati: etika, pragmatika, psixologiya) nomli kitobida "nutq etiketi muayyan madaniyatda o'rnatilgan formulalar va munosabat qoidalari doirasidagi nutq xushmuomalaligi bilan ifodalanadi," [8]. deb ta'kidlaydi. T. V. Larina "Kategoriya vejlivosti i stil kommunikatsii: Sopostavleniye angliyskix i russkix lingvokulturnyx traditsiy" (Muloyimlik kategoriyasi va muloqot uslubi: Ingliz va rus lingvomadaniy an'analarning chog'ishtirma tadqiqi) nomli asarida rus xalqiga xos etiket haqida fikr yuritir ekan, ruslar uchun bu "ichki munosabat ekanligi, u hammaga emas, faqat unga loyiq kishilargagina qo'llanilishi

lozim”ligiga urg‘u beradi[9]. Bu jihatdan rus, o‘zbek va ingliz xalqlari etiketi tubdan farqli qiladi. Bu xalqlarda suhbatdosh so‘zlovchiga yoqmasa ham, yoki o‘zaro munosabat ziddiyatli bo‘lsa ham, muloyimlik, nutqiy etiketga amal qilib suhbatlashish shart. Rus madaniyatida bunday nutqiy etiketga salbiy qaraladi va “ikkiyuzlamachilik”, deb tushuniladi. Nutqiy etiket qat’iy qoida yoki syenzura darajasigacha ko‘tarilgan millatlarda u “rasmiylik va ritual xarakter”ni ifodalasa, rus xalqida “samimiylik, to‘g‘ridan-to‘g‘rilik, to‘g‘riso‘zlik, munosabatning chin yurakdan chiqishi ko‘proq qadrlanadi. Ruslarda “vejlivost – serdechnost” (muloyimlik/nutqiy etiket –chin qalbdan) iborasi ham bejiz qo‘llanilmaydi. A.N.Shukinning “Metodika obucheniya rechevomu obshcheyenyu na inostrannom yazыke”[10]. (Xorijiy tilda nutqiy muloqotni o‘qitish metodikasi) nomli o‘quv qo‘llanmasida keltirilishicha, salomlashishda ham ruslardagi “Kak mama? Kak jena?” kabi savollar nutqiy etiket belgisi bo‘lsa, ba’zi musulmon xalqlari aksincha behurmatlik sanaladi. Zero, ayollar haqida o‘zining qarindoshlaridan boshqa odam so‘rashi musulmonchilik qoidalariga to‘g‘ri kelmaydi deb biladilar. Nutqiy etiket (soxta yoki samimiy) nutqda katta o‘rin egallaydigan til vakillarida ob‘yektga yo‘naltirilsa, rus madaniyatida bu sub‘yektga yo‘naltiriluvchi tushunchadir va u albatta samimiy bo‘lishi shart. Rus tilshunosligida P.Braun va S.Levinson nazariyasi ilgari surilgan tadqiqotlar ham kuzatiladi. Xususan, Ye. V. Sviridova[11] ilmiy maqolasida nutqiy etiket birliklarining universal tamoyillari yuzaga kelishi bilan bog‘liq dalillangan diskursning pragmatik aspektlarini o‘rganadi hamda nutqiy etiket strategiyalarini situasional misollar (ilmiy rahbarning tadqiqotchiga nisbatan qo‘llagan birliklari) bilan ochib beradi. Jumladan, *Bald on record* – direktiv strategiyaga misol: “Siz dissertasiyangizni zudlik bilan nihoyasiga yetkazishingiz kerak! Bu sizni shuncha yil o‘qitgan kafedra oldidagi va shaxsan mening ham oldimdagi burchingiz! Kutubxonaga choping!” (Вы должны срочно закончить диссертацию! Это ваш долг перед кафедрой, которой вы столько лет учили, и перед мной лично! Марш в библиотеку!); *Positive politeness* – pozitiv etiket strategiyasiga misol: “Siz tezgina ishingizni yozib



tugatib, tez orada himoya qilsangiz juda yaxshi bo'lardi, axir qo'lingizdan keladi-ku!" (Было бы здорово, если бы вы Быстренко все дописали и Скренко предзащитили, ведь вы же можете!); *Negative politeness* – negativ etiket strategiyasiga misol: "Yana bir marta eslatishni xohlamasdim-ku, lekin bizning to'plamga maqola topshirishning oxirgi muddati ertagacha." (Не хотелось бы лишней раз напоминать, но срок сдачи статьи в наш сборник истекает завтра.); *Off-record*

– nodirektiv[12]. strategiyaga misol: Negadir men ikki chet tilini biladigan odamlar umumgumanitar mavzusidagi 150 varaq ilmiy matni bemalol yoza oladilar deb o'ylayman. (А мне по-прежнему всегда казалось, что люди, владевшие двумя иностранными языками вполне могут написать сто пятьдесят страниц научного текста на общегуманитарную тематику!)

Bizningcha Ye. V. Sviridovning **pozitiv etiket** strategiyasiga keltirgan misolining (Было бы здорово, если бы вы Быстренко все дописали и Скренко предзащитили, ведь вы же можете!) oxirgi qismi nodirektiv strategiyaning "javob talab qilmaydigan ritorik savollar berish" substrategiyasiga to'g'ri keladi, shuning uchun bu misolda aralash strategiya (pozitiv va nodirektiv) qo'llangan deb topish mumkin.

G.Lich etiket qoidalariga muloqot usuli va birliklarni minimallashtirish, etiket qoidalariga muvofiq bo'lgan muloqot usuli va birliklarni maksimallashtirish tamoyilini ilgari suradi. Bu tamoyil hamingliz mentalitetidan kelib chiqqan holda tadqiq etilgan bo'lib, uni barcha tillarga to'g'ri keluvchi tamoyil deb bo'lmaydi. Masalan, "Sympathy" – "G'amxo'rlik" qoidasiga ko'ra loqaydlikni minimallashtirish, g'amxo'rlikni maksimallashtirish tamoyili Uzoq Sharq va ko'pgina g'arb mamlakatlarida amal qiluvchi "dahlsizlik" tamoyili bilan qarama-qarshi keladi.

B.Frazer "Perspective on Politeness" (Nutqiy etiket istiqbollari) mavzusidagi tadqiqotida P.Braun va S.Levinson tomonidan ilgari surilgan nutqiy etiket tamoyillariga tanqidiy yondashdi. Uning fikricha, nutqiy etiketni tushunish uchun quyidagi savollarga javob bera olish kerak: Nutqiy etiket

qanday qo'llanadi? So'zlovchi tanlovining xushmuomala bo'lib eshutilishiga qanday omillar ta'sir qiladi? Qaysi qoida eng yuqori samaradorlikka ega? Olim tadqiqotda "xushmuomala bo'lish - tinglovchini yaxshi his qilishiga imkoniyat yaratish yoki uni hijolat tortmasligini ta'minlash degani emas" [13] degan mulohazani keltiradi. Ammo fikrini dalillar, manbalar bilan asoslamaydi.

M.Jus Amerika nutqiy etiketini o'rganar ekan, muloqot vaziyatini besh turga bo'lib, tahlil qiladi. 1. Qotgan muloqot -Frozen (rasmiy uslub, tinglovchidan javob talab qilinmaydi, so'zlovchi chiroyli so'zlar va ravon grammatikani qo'llab, uzun gaplar tuzib gapiradi. Marosimlar, to'ylar, rasmiy tadbirlardagi nutq, qasamyod va h. k. larda qo'llanadi. ); 2. Rasmiy muloqot - Formal (lavozimi baland, yoshi katta insonlarga nisbatan mazkur uslubda murojaat etiladi. Sud, intervyu, majlislardagi nutqlarda qo'llanadi.); 3. Maslahatli -Consultative (semi- formal, ikki tomonlama suhbat, muhokama, munozara); 4. Kundalik – Casual (norasmiy, erkin. Do'stlar, oila a'zolari, tanishlar bilan jonli yoki virtual suhbatda qo'llanadi); 5. Intim – Intimate (juda yaqin munosabatdagi kishilarning o'zaro til kodlarini ishlatib muloqotga kirishishi).

M.Jusning mazkur nazariyasi ingliz tili nutqiga asoslangan bo'lib, muloqot vaziyatlarini guruhlariga ajratib o'rganish nafaqat ona tili vakillari, balki xorijiy tilni o'rganuvchilarda ham nutqiy etiket birliklarini o'rnida qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi. Ammo bu xususiyatning istalgan tilga ham mos kelavermasligi va biroz chegaralanganligi seziladi.

XX asrning so'nggi o'n yilligi - XXI asr boshlarida olimlar e'tiborini ko'proq nutqiy etiket mavzusi doirasida "behurmatlik va qo'pol muomala" masalasiga qaratishdi. Ular insonlar muloqotidagi til aspektlarini nazariy jihatdan o'rganib, "face-maintaining" (hurmatni saqlash), "face-enhancing" (hurmatni oshirish) va "face-damaging" (hurmatga putur yetkazish) xulq-atvorini tahlil qildilar[14].

XXI asrning dastlabki yillaridan esa tilshunoslikda ijtimoiy bilish/tushunish (social cognition) va nutqiy etiket (politeness) mavzularidagi tadqiqotlar salmoqli o‘rinlarni egallamoqda[15]. Bu tadqiqotlarda “Feys nazariyasi doirasida bir qancha izlanishlar olib borildi, biroq ularda chuqur tahlillar kuzatilmadi. G.Lich ingliz madaniyatiga asoslanib, nutqiy etiketning olti tamoyilini keltiradi[16]. Quyida ular jadval shaklida berilishi ancha tushunarli bo‘ladi

<b>N</b>	<b>Qoida</b>	<b>Maksimallashtiring</b>	<b>Minimallashtiring</b>
<b>1</b>	<b><i>Odob(Tact)</i></b>	Boshqalar uchun foyda	Boshqalar uchun zaxmat
<b>2</b>	<b><i>Olijanoblik (Generosity)</i></b>	O‘zi uchun zaxmat	O‘zi uchun foyda
<b>3</b>	<b><i>Ma’qullanish (Approbation)</i></b>	Boshqalarga qaratilgan maqtoov	Boshqalarga qaratilgan tanqid
<b>4</b>	<b><i>Kamtarlik (Modesty)</i></b>	O‘zini tanqid qilish	O‘zini maqtash
<b>5</b>	<b><i>Kelishuv (Agreement)</i></b>	Kelishuv	Kelishmovchilik
<b>6</b>	<b><i>G’amxo‘rlik (Sympathy)</i></b>	G’amxo‘rlik	Loqaydlik

XXI asrning dastlabki yillaridan esa tilshunoslikda ijtimoiy bilish/tushunish (social cognition) va nutqiy etiket (politeness) mavzularidagi tadqiqotlar salmoqli o‘rinlarni egallamoqda. Bu tadqiqotlarda “Feys nazariyasi doirasida bir qancha izlanishlar olib borildi, biroq ularda chuqur tahlillar kuzatilmadi.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Longman English electronic dictionary. Oxford electronic dictionary.
2. Larina T.V. Kategoriya vejlivosti i stil kommunikatsii: Spostavleniye angliyskiy i russkix lingvokulturnyx traditsiy.– Moskva: Rukopisnyye pamyatniki Drevney Rusi, 2009. - C. 136.
3. Romanova I. A. Slovar. Kultura rechevogo obshcheniya: etika, pragmatika, psixologiya. – Moskva: Nauka, 2009.– 304 c.

4. Rudneva Ye.A. Strategii lingvisticheskoy vejlivosti v spontannom rechevom vzaimodeystvii. Sankt- Peterburg: Institut lingvisticheskix issledovaniy rossiyskoy akademii nauk, 2018.
5. Ratmayr R. Vejlivost v russkom yazyke i kulture // Russkaya rech i rynek: traditsii i innovasii v delovom i povsednevnom obshchenii. -Moskva: Yazyki slavyanskoy kultury, 2013. - S. 140-220.
6. Formanovskaya N. I. Ritualы vejlivosti i tolerantnost // Filosofskie i lingvokulturologicheskiye problemy tolerantnosti: sbornik statey. - Yekaterinburg: Izdatelstvo Uralskogo gosudarstvennogo universiteta, 2003. - S. 345–362
7. // Seriya Gumanitarnыye nauki. – Moskva: Rossiyskiy universitet druzhby narodov, 2013. - № 13 (156).
8. Larina T. V. Kategoriya vejlivosti i stil kommunikatsii: Sopostavleniye angliyskiy i russkix lingvokulturnыx traditsiy. – Moskva: Rukopisnyye pamyatniki Drevney Rusi, 2009. - С. 136.
9. Щукин А. N. Metodika obucheniya rechevomu obshcheniyu na inostrannom yazyke: ucheb. posobiye dlya prepodavateley i studentovyazykovыx vuzov. – Moskva: Ikar, 2011. – 454 с.
10. Sviridova Ye. V. O principe vejlivosti v argumentativnom diskurse // Logika i argumentatsiya. Sankt- Peterburg, Logiko-filosofskie shtudii. Выр. 8, 2010. S.168-175
11. Fraser B. Perspectives on Politeness // Journal of Pragmatics, 1990. – № 14. – P. 219-236. <sup>38</sup> Fraser B. Perspectives on Politeness // Journal of Pragmatics, 1990.– № 14. – P. 219-236.
12. Joos M. The Five Clocks. - Bloomington: Indiana University Research Center, 1962.
13. Culpeper J. Impoliteness and entertainment in the television quiz show: The Weakest Link // Journal of Politeness Research. Language, Behaviour, Culture. – London, 2005. – № 1(1). – P. 35-72.; Culpeper J.

(Im)politeness in dramatic dialogue. Exploring the language of drama:  
From text to context. – London, 1998. – P. 83–95.

14. Oatey H. Culturally Speaking: Culture, Communication and Politeness  
Theory // Continuum. – London, 2008. - №2. - P. 20-27

<b>Ismatov A.F.</b> Ertak diskursi va uning boshqa diskurs turlari bilan aloqasi.....	165
<b>Normurodova N.Z., Xodjakulova N.X., Makhmudova U.A.</b> Translation problems of recreating nationally marked units in literary discourse.....	169
<b>Normurodova N.Z., Xodjakulova N.Kh., Mamarasulov T.</b> Verbal analysis of political discourse: problems and solutions.....	174
<b>Davletnazarova L.B.</b> Konsept va uning tuzilishi.....	178
<b>Abdullayeva U.R.</b> The main linguistic and stylistic features in translating political discourse.....	182
<b>Ismatov A.F.</b> Ertak turlari ertak diskursining janr yaratuvchi elementi sifatida..	185
<b>G'afforov N.N.</b> O'zbek tilining umumiy lug'atlarida sport terminlarining ifodalanishi.....	190

**TRANSLATION STUDIES IN THE CONTEXT OF INTERCULTURAL COMMUNICATION**

**ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ В КОНТЕКСТЕ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ  
TARJIMASHUNOSLIK VA MADANIYATLARARO MULOQOT**

<b>Bumatova A.M.</b> The poetic of a stanza translation.....	196
<b>Abdulloyeva K.M.</b> Zamonaviy lingvistika kontekstida kognitiv tadqiqotlar rivoji.....	200
<b>Borasulova D.D., Teshaboyeva Z.</b> "Firdavs ul-iqbol" asarining o'zbek olimlari tomonidan o'rganilishi.....	204
<b>Borasulova D.D.</b> "Firdavs ul-iqbol" asarining dunyo olimlari tomonidan o'rganilishi va Y.Bregel tarjimasini.....	207
<b>Norbekova F.Sh.</b> Challenges in guiding interpretation and their solution.....	209
<b>Norbekova F.Sh.</b> Oral translation competence of a tour guide.....	212
<b>Xudoyqulova D.K.</b> Akronim va abbreviaturalarning tarjimada qo'llanilishi.....	216
<b>Usmonova M.U., Xoliqov B.A.</b> Sinonimlarni tarjima qilishning ba'zi muammolari.....	220
<b>Xodjakulova N.X., Shonazarova D.D.</b> Syntactic problems in simultaneous interpretation (on the example of English and Uzbek languages).....	223
<b>Hikmatova N., Qosimov A.</b> Tarjimashunoslikning ahamiyati.....	226
<b>Husanova M.M., Lolayeva G.G., Khusanova M.M.</b> The importance of translation in the elimination of cultural disputes.....	230

**INNOVATION AND TOURISM**

**ИННОВАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ И ТУРИЗМ  
INNOVATSION FAOLIYAT VA TURIZM**

<b>Saidmamatov O.A.</b> Ecotourism in aral sea region of uzbekistan: problems and opportunities.....	233
<b>Abdullayeva U.R.</b> Globallashuv davrida madaniyatlararo muloqot: biznesda va sayohatda.....	237
<b>Sadikova G.I., Jalilova D.B.</b> Innovational activities and tourism.....	240
<b>Bobojonova Sh.Y.</b> Ta'limiy diskursda nutkiy etiketning talqini .....	245

Proceedings of the international scientific online conference on  
**“INTERCULTURAL COMMUNICATION AND TOURISM”**

---

Материалы международной научной онлайн-конференции  
**«МЕЖКУЛЬТУРНЫЙ КОММУНИКАЦИИ И ТУРИЗМ»**

---

**“MADANIYATLARARO MULOQOT VA TURIZM”**  
mavzusida xalqaro ilmiy onlayn anjuman materiallari

**Tashkent June 10, 2022**

**“Bookmany print” nashriyoti**

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 27.06.2022.

“Times New Roman” garniturasida. Qog‘oz bichimi: 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>

Nashriyot bosma tabog‘i 18. Shartli bosma taboq 15,2.



Adadi 50 nusxa. ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: [bookmany\\_print@mail.ru](mailto:bookmany_print@mail.ru)

 [t.me/ Bookmanyprint](https://t.me/Bookmanyprint)  +998 99 180 97 10



ISBN 978-9943-8396-8-7

